

## HARBIY XIZMATCHILAR MAJBURIYATLARINING YURIDIK TABIATI

A.A. Tursunboyev

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20842406>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada harbiy xizmatchilarning majburiyatlari tizimi, tasnifi hamda o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Harbiy xizmatning alohida tabiati bilan bog'liq cheklovlar xalqaro inson huquqlari standartlari nuqtayi nazaridan asoslab berilgan. Muallif harbiy xizmatchilar maqomini mustahkamlash uchun normativ-huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish, huquqlarni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish va qo'shimcha kafolatlarni joriy etish zarurligini ilmiy jihatdan asoslangan.

**Kalit so'zlar:** harbiy xizmatchilar maqomi, majburiyatlar tasnifi, maxsus huquqlar, konstitutsiyaviy cheklovlar, harbiy intizom, huquqiy kafolatlar, xalqaro standartlar.

### ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ОБЯЗАННОСТЕЙ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

**Аннотация.** В данной статье проанализированы вопросы совершенствования статуса военнослужащих, система их обязанностей, классификация и особенности.

Ограничения, связанные с особым характером военной службы, обоснованы с точки зрения международных стандартов в области прав человека. Автор научно обосновал необходимость устранения нормативно-правовых пробелов, совершенствования механизмов обеспечения прав и введения дополнительных гарантий для укрепления статуса военнослужащих.

**Ключевые слова:** статус военнослужащих, классификация обязанностей, специальные права, конституционные ограничения, воинская дисциплина, правовые гарантии, международные стандарты.

### LEGAL NATURE OF THE DUTIES OF MILITARY PERSONNEL

**Annotation.** This article analyzes the issues of improving the status of military personnel through an examination of their system of duties, classification, and distinctive characteristics.

Limitations associated with the unique nature of military service are justified from the perspective of international human rights standards. The author scientifically substantiates the necessity of addressing regulatory and legal gaps, enhancing mechanisms for ensuring rights, and implementing additional guarantees to strengthen the status of military personnel.

**Keywords:** status of military personnel, classification of duties, special rights, constitutional restrictions, military discipline, legal guarantees, international standards.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida "O'zbekiston Respublikasini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchi" ekanligi to'g'risidagi eng muhim, barcha amaldagi qonunchilik uchun boshlang'ich qoidani mustahkamlangan[1].

O'zbek tilining izohli lug'atida "burch" so'ziga "ado etilishi, bajarilishi majburiy bo'lgan vazifa; majburiyat" ma'nolarini bildirishi ko'rsatib o'tilgan[2]. Ya'ni Vatanni himoya qilish burchi barchaning va har kimning Vatan himoyasida baholi qudrat ishtirok etishdek ma'naviy va yuridik majburiyatini anglatadi. "Vatan himoyasi" tushunchasini ochib berishda ikki kategoriyadan: huquqiy, me'yoriy, yuridik - majburiyat sifatida va axloqiy, axloqiy - burch sifatida talqin

qilishimiz mumkin. ya'ni, o'z Vatanini himoya qilish har bir fuqaro uchun nafaqat huquqiy, qolaversa, ma'naviy talab, axloqiy burch, umumbashariy majburiyatdir.

U mamlakatni, uning aholisini, moddiy va ma'naviy boyliklarini, suvereniteti va xavfsizligini himoya qilishga, hududining yaxlitligi va daxlsizligini ta'minlashga qaratilgan bo'ladi.

Fuqarolarning Vatanni himoya qilish majburiyati, bir tomondan, chaqiruv asosida harbiy xizmatni o'tash bo'yicha yuridik majburiyatini o'z ichiga olsa, boshqa tomondan harbiy unvoni, egallab turgan lavozimi va qo'shin turiga mansubligidan qat'i nazar, barcha harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlarini ifodalaydi. Harbiy xizmatchilar Vatanni himoya qilish bo'yicha o'z burchini harbiy xizmatni o'tash shaklida bajarish uchun o'z Vatani va xalqiga sodiqlik to'g'risida qasamyod qabul qiladi. Harbiy xizmatchilarning mamlakat hududiy yaxlitligini, mustaqilligini va xavfsizligini himoya qilish nafaqat eng muhim konstitutsiyaviy burchi, shuningdek sharaflil majburiyatlardan biri sanaladi. Harbiy xizmatchilarning majburiyatlari ularning jamiyat va davlat himoyachilari sifatidagi o'ziga xos ijtimoiy roli bilan belgilanadi.

Harbiy xizmatning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib harbiy xizmatchilarning ayrim fuqarolik huquqlari va erkinliklari cheklanishi mumkin. Fuqaro harbiy qasamyod qabul qilishi bilan harbiy xizmatchi maqomiga ega bo'ladi. Harbiy xizmatning o'ziga xos funksiyalari harbiy xizmat ko'rsatiladigan barcha davlat tashkilotlari va organlarining harbiy xizmatchilarining o'ziga xos faoliyatini aks ettiradi. Harbiy xizmatchilarning majburiyatlari deganda Konstitutsiya va qonunlar, boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlar bilan belgilangan vazifalarni (asosiy harakatlarni) majburiy bajarish tushuniladi. Harbiy xizmat o'tashning o'ziga xosligidan kelib chiqib harbiy xizmatchilarga boshqa fuqarolarga nisbatan "og'irroq" majburiyatlar yuklatiladi. Bu majburiyatlarning ba'zilar barcha harbiy xizmatchilar uchun umumiy xarakterga ega bo'lsa, ba'zi majburiyatlar, masalan, lavozim yoki maxsus majburiyatlarni bajarilishi muddati biron-bir vaqt doirasi bilan tartibga solinmagan.

Harbiy xizmatchilarning yuridik javobgarligi haqida fikr yuritishdan avval javobgarlik tushunchasining mazmun-mohiyatini bilib olish zarur deb hisoblaymiz. O'zbek tilining izohli lug'atida javobgarlik bu xatti-harakati, qilmishi uchun biron-bir mas'uliyatga yoki jazoga tortishni talab qiladigan holat ekanligi bayon etilgan. "Javobgarlik" tushunchasi kimgadir o'z xatti-harakatlari va qilmishlari haqida hisobot berish zaruriyatini, ular uchun javobgar bo'lish majburiyatini anglatadi.

Harbiy sohaga oid qonunchilik normalari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki harbiy xizmatchilar yuridik javobgarligining nazariy asoslari, yuridik javobgarlik tushunchasini ishlab chiqish, ushbu huquqiy institutning o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'rsatish va shuni hisobga olgan holda, harbiy xizmatchilarning javobgarligi to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va uni qo'llash amaliyoti dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Harbiy xizmatning o'ziga xos xususiyati harbiy xizmatchilarga mamlakat mudofaasi va xavfsizligini, jangovar shayligini ta'minlash bilan bog'liq majburiyatlardan iborat bo'lib, ular har qanday sharoitda, shu jumladan hayot va sog'liq uchun xavfi yuqori mavjud bo'lgan taqdirda ham o'z majburiyatlarini bajarishi talab etiladi.

Harbiy xizmatchilarning majburiyatlari va ularning yuridik tabiati harbiy huquq sohasida eng dolzarb masala sifatida yurtimiz hamda MDH davlatlarining bir qator olimlari va izlanuvchilar tomonidan ilmiy tadqiq etilgan.

Jumladan S.V.Poluninning fikricha, harbiy xizmatchilarning majburiyatlari haqida quyidagi fikrlarni ilgari surgan. Uning fikricha “davlat harbiy xizmatchilarning huquqlarini ta’minlash bo’yicha majburiyatlarni o’z zimmasiga olib, ulardan huquqiy normalarda belgilangan me’yorlarga mos keladigan qonuniy xulq-atvorni talab qilishga haqli. Shu maqsadda davlat o’z talablarini majburiyatlar tizimida shakllantiradi va ularga rioya etmaslik uchun qonuniy javobgarlik choralari belgilaydi”[3]. Professor D.N.Baxrax bunday choralarni umumiy harbiy xizmat majburiyatlari deb atagan. Uning fikricha “majburiyatlar xizmat lavozimidan qat’iy nazar barcha harbiy xizmatchilarga taalluqli bo’lib, harbiy xizmatchilar maqomining elementi bo’lgan va mohiyatan muayyan faoliyat turlarini, ya’ni harakatsizlik orqali amalga oshirilishini taqiqlovchi umumiy xizmat vazifalari qatoriga kiradi” degan fikrni ilgari surgan[4]. K.I.Popov esa “zaruriy mudofaa” harbiy xizmatchilarning huquqi yoki majburiyati ekanligi yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borib “zaruriy mudofaa” bu harbiy xizmatchilarning huquqi degan to’xtanga kelgan[5].

Umumiy ma’noda, harbiy xizmatchining majburiyatlari deganda Konstitutsiya bilan belgilangan va qonunlar, boshqa me’yoriy hujjatlar bilan belgilangan funksiyalarni (asosiy harakatlarni) majburiy amalga oshirish uchun belgilangan, harbiy xizmatni bajarishning mohiyatini tashkil etuvchi majburiyatlar tushuniladi[6].

Barcha harbiy xizmatchilarning majburiyatlari umumiy, lavozim va maxsus turlarga bo’linadi. Harbiy xizmatchilar majburiyatlarining yuridik tabiati bir biridan farq qilishi mumkin.

Masalan kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilar va muddatli harbiy xizmatchilarning majburiyatlari bir-birdan keskin farq qiladi. Bu haqida N.A.Maslov ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Uning ta’kidlashicha “harbiy xizmatchilarga yuklatilgan majburiyatlarni ikkiga, umumfuqaroviy va harbiy xizmat majburiyatlari bo’lish mumkin”. N.A.Maslov harbiy xizmatchilarning umumfuqaroviy majburiyatlari bu ularning konstitutsiyaviy majburiyatlari ekanligi bayon qilgan. Harbiy xizmatchilarning umumiy fuqarolik majburiyatlari barcha fuqarolar bilan teng ravishda bajaradigan barcha majburiyatlarni o’z ichiga oladi” deb ta’kidlagan[7]. N.I.Matuzova majburiyat va erkinlik o’rtasida uzilmas aloqani ta’kidlab, “majburiyat erkinlik singari obyektiv zaruriyatdir” degan fikrni ilgari surgan[8].

Belorussiyalik olim A.S.Ignatenko fikricha, “harbiy xizmatchilar mamlakat fuqarosi sifatida bir qatorda umumiy xarakterga ega bo’lgan konstitutsiyaviy majburiyatlarga ham ega jumladan, konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish, milliy an’analarni hurmat qilish majburiyati, boshqalarning qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini hurmat qilish majburiyati, davlat xarajatlarini moliyalashtirishda ishtirok etish majburiyati, tarixiy, madaniy, ma’naviy meros va boshqa milliy qadriyatlarni muhofaza qilish majburiyati, tabiatni muhofaza qilish majburiyati, Vatanni himoya qilish majburiyati”[9]. E.A.Titanova esa, harbiy xizmatchilarning majburiyatlari sifatida umumiy, lavozim va maxsus majburiyatlardan iborat” ekanligini ta’kidlagan[10].

Yuqorida olimlar va ilmiy tadqiqotchilarning fikr va mulohazalaridan kelib chiqib quyidagicha tahlil qilish mumkin.

**Fikrimizcha, harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlari** - bu ularning mansab (ish) lavozimi va harbiy unvonidan qat'i nazar, barcha harbiy xizmatchilarga teng ravishda qo'llaniladigan qonuniy majburiyatlar. Bunday majburiyatlar harbiy xizmat o'tash tartibini belgilovchi qonunlar, harbiy nizomlar hamda harbiy qasamyodda belgilangan. Bunday asosiy majburiyatlarga davlatni himoya qilish, komandir (boshliq)larga so'zsiz bo'ysunish, harbiy mahoratni oshirish va harbiy mulkni saqlash, harbiy xizmatchilar bir-biriga hurmat bilan munosabatda bo'lish, tartib va intizomni saqlashda komandir (boshliq)larigi yordam berish kabi majburiyatlarni kiritish mumkin.

Ya'na bir ahamiyatli jihati harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlarini axloqiy xususiyatga ega deyishimiz mumkin. Masalan harbiy xizmatchilar harbiy qasamyodga sodiq qolish, o'z xalqiga fidokorona xizmat qilish, vatanni jasorat va matonat bilan himoya qilish, Konstitutsiya, harbiy nizomlar talablariga qat'iy rioya qilish va komandirlarining buyruqlarini so'zsiz bajarish, harbiy birodarlik, harbiy shon-sharaf va harbiy o'rtoqlikni qadrlash, harbiy mahoratni oshirish, qurol va harbiy texnikani foydalanishga doimiy shay holatda saqlash, harbiy mulkni muhofaza qilish, intizomli, hushyor bo'lish, davlat va harbiy sirlarni saqlash, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyillari va normalariga va xalqaro shartnomalariga rioya qilish kabi majburiyatlar shular jumlasidan.

Fuqarolar harbiy xizmatga oid munosabatlarga kirishishi bilan ularga umumiy majburiyatlar yuklanadi. Shu bilan birga ular harbiy xizmatchilarning umumiy huquqlariga ham ega bo'ladi. Shaxs harbiy xizmatga oid munosabatlarga to'liq hajmda ya'ni harbiy xizmatchilarning huquq va majburiyatlariga harbiy qism ro'yxatiga kiritilganda, harbiy qasamyod qabul qilganda va harbiy lavozimga tayinlanganda ega bo'ladi.

**Harbiy xizmatchilarning lavozim majburiyatlari** – egallab turgan lavozimiga ko'ra unga yuklatilgan funksiyalar va vazifalarni amaliy bajarish doirasi va chegaralarini belgilaydigan majburiyatlardir. Ushbu majburiyatlar Nizomlar, qo'llanmalar, ko'rsatmalar, yo'riqnomalar yoki bevosita komandirlarning yozma buyruqlari bilan belgilanadi.

**Harbiy xizmatchilarning maxsus majburiyatlari** - jangovar xizmat, kundalik va garnizon navbatchiligida, shuningdek, tabiiy ofatlar va boshqa favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etishda ishtirok etadigan harbiy xizmatchilarga yuklanadigan majburiyatlardir. Bunday majburiyatlar vaqtinchalik xususiyatga ega bo'ladi. Ya'na bir ahamiyatli tarafi harbiy xizmatchilarga maxsus majburiyatlar bilan bir qatorda qo'shimcha majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

A.V.Titovanning fikricha, "harbiy xizmatchilarning majburiyatlari ularning muddati, joyi va subyektiga ko'ra bo'linadi"[11] A.V.Azarxinning ta'kidlashicha, "harbiy xizmatchilar yuridik majburiyatlari ularning maqomini cheklaydi"[12].

Harbiy xizmatchilar majburiyatlarini bajarishi ularning hayoti va sog'ligiga zarar keltirishi mumkin. Davlat esa harbiy xizmatchilarga zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishi uchun imtiyozlar va kafolatlar berishi lozim. Bu borada A.I.Spitsinning "davlat harbiy xizmatchilarga har qanday sharoitda, o'z hayotini xavf ostiga qo'yib Vatanni qurolli himoya qilish majburiyatini bajarishi uchun qo'shimcha imtiyozlar va kompensatsiyalar berishga majburdir" degan fikriga qo'shilamiz[13].

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib harbiy xizmatchilarning majburiyatlarini bajarishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan uchta asosiy omilni ko'rsatib o'tish mumkin: Bular:

- 1) harbiy xizmatni o'tash majburiyati;
- 2) harbiy xizmatchi harbiy xizmatni o'tash majburiyatini olgan davr;
- 3) harbiy xizmatchilarning umumiy, rasmiy (lavozim) va maxsus majburiyatlarini sadoqat bilan bajarish majburiyati.

Yuqoridagi omillar harbiy xizmatchining yuridik majburiyatlari hisoblanib, unga qonun bilan belgilangan, zarur hollarda esa davlat majburlovi bilan ta'minlanadigan to'g'ri xulq-atvor chorasi hisoblanadi.

O'z navbatida harbiy xizmatchilarning yuridik majburiyatlarini ikki qismga bo'lish mumkin.

- harbiy xizmatchilardan talab qilinadigan xatti-harakatlar, ya'ni taqiqlangan harakatlardan voz kechish (harbiy xizmatchining alohida maqomiga muvofiq, ma'lum vaqt davomida harbiy xizmatni o'tash majburiyati);

- ma'lum harakatlarni faol bajarish (harbiy xizmatchilarning umumiy, rasmiy va maxsus majburiyatlarini vijdonan bajarish majburiyati).

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Ichki xizmat nizomining 34-moddasida harbiy xizmatchilar tomonidan "buyruqni muhokama qilishga yo'l qo'yilmaydi, bo'ysunmaslik yoki buyruqni bajarmaganlik uchun harbiy xizmatchi O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladi" deb belgilangan. Ushbu nizomning 43-moddasida esa "komandirning (boshliqning) buyrug'i so'zsiz, aniq va o'z vaqtida bajarilishi shart. Buyruq olgan harbiy xizmatchi "xo'p bo'ladi" deb javob berib, buyruq ijrosiga kirishadi" deb belgilangan.

Intizom nizomining 7-moddasida harbiy xizmatchi "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga qat'iy rioya qilishi" belgilangan. Fikrimizcha aynan shu holatda harbiy xizmatchilarning bo'ysunish majburiyati chegaralarini belgilash va harbiy xizmatchilarning noqonuniy buyruqlarni berish va bajarish uchun yuridik javobgarligi bilan bog'liq muammo yuzaga keladi.

Harbiy xizmatchilarning buyruqqa bo'ysunish chegaralari hamda uni bajarish va bajarmaslik uchun javobgarlik xalqaro huquq normalarida o'z ifodasini topgan. Masalan, Nyurnberg xalqaro harbiy tribunalining 8-moddasida ayblanuvchining boshliqning buyrug'iga muvofiq harakat qilganligi fakti uni sodir etgan qilmishi uchun javobgarlikdan ozod etmasligi, balki faqat javobgarlikni yengillashtiruvchi holat sifatida ko'rilishi mumkinligi nazarda tutilgan[14]. Jinoiy buyruqni bajarmaganlik uchun jazo tayinlash mumkin emas va aksincha, oliy jinoyat sodir etishda buyruqqa havola qilish jinoiy javobgarlikdan ozod qilmaydi[15].

Demak, ijroning chegarasi jinoiy buyruq hisoblanadi. Xalqaro gumanitar huquq normalariga mos kelmaydigan buyruqni ijro etish muammolarini tadqiq etgan olim M.Ober har bir harbiy xizmatchi "huquqqa xilof buyruqqa bo'ysunishdan bosh tortish huquqini beradigan muayyan mas'uliyatga ega bo'lishi kerak" deb ta'kidlagan[16].

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Ichki xizmat nizomining 41-moddasida harbiy xizmatchilar majburiyatlari sifati quyidagilar belgilangan. Jumladan, "harbiy xizmatchi jangovar harakatlar davomida o'z harbiy qismidan (muassasasi, bo'linmasidan) ajralib yakkalanib qolgan

va to'la qurshovda qolgan bo'lsa ham dushmanga keskin qarshilik ko'rsatish, unga asir tushmaslikka harakat qilish, jangda o'z harbiy burchini so'nggi imkoni qolgunga qadar ado etishga majburdir.

Agar harbiy xizmatchi barcha qarshilik ko'rsatish vositalari va yo'llaridan oxirigacha foydalangan bo'lib yoxud qarshilik ko'rsatishga imkoniyati bo'lmay qolib asirga olingan bo'lsa, o'zini va o'rtoqlarini asirdan ozod qilish va o'z qo'shini safiga qaytishning har qanday imkoniyatini izlashi va foydalanishi lozim. Dushman tomonidan asirga tushirilgan harbiy xizmatchi so'roq paytida faqat o'z familiyasi, ismi, otasining ismini, harbiy unvoni, tug'ilgan sanasi va shaxsiy raqamini bildirish huquqiga egadir. U Vatan himoyachisi or-nomusini saqlab qolishga, davlat, harbiy va xizmat sirlarini qattiq sir saqlashga, sabot va matonat ko'rsatishga, asirlikka tushgan boshqa harbiy xizmatchilarga yordam berishga, ularni dushman bilan hamkorlik qilishdan to'xtatib qolishga, dushmanning harbiy xizmatchidan O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga qarshi foydalanishiga urinishlarini rad qilishga majburdir. Ushbu me'yor 1949-yil 12-avgustdagi "Harbiy asirlar bilan muomala qilish to'g'risida"gi Jeneva konvensiyasining[17] 17-moddasiga mos keladi, faqat farqi shundaki, konvensiyaga ko'ra bu harbiy asirning majburiyati hisoblanadi. Agar harbiy asir ushbu qoidani ongli ravishda buzsa, u harbiy asir imtiyozlaridan cheklanishi mumkin.

Harbiy xizmatchilarning umumiy majburiyatlariga intizomli bo'lishni talab qilish ham kiradi. Harbiy xizmatchilar uchun birinchi navbatda harbiy intizom xos bo'lib, bu barcha harbiy xizmatchilarning qonunchilik hujjatlari, harbiy nizomlar va komandirlarning (boshliqlarning) buyruqlari bilan belgilangan tartib va qoidalarga qat'iy hamda aniq rioya etishidir. Harbiy intizomga amal qilish majburiyatining o'ziga xos xususiyati shundaki bo'ysunuvchilarning boshliqlarga so'zsiz bo'ysunishi, ularning buyruqlarini aniq va o'z vaqtida bajarishidir. Itoatkorlik harbiy intizomning o'zagidir desak mubolag'a bo'lmaydi. Harbiy xizmatchilar bir-biriga hurmat ko'rsatishga, komandir (boshliq) va kattalarga tartib va intizomni saqlab turishda yordam berishga majbur. Harbiy xizmatchi o'zi ishtirokida yuz bergan, xizmat vazifalarini bajarishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan barcha hodisalar hamda unga berilgan tanbehlar haqida bevosita komandirga (boshlig'iga) bildiruv berishga majbur. Harbiy xizmatchilar o'rtasida harbiy nizomlarda belgilangan qoidalarga zid munosabatlar sodir etilsa, harbiy xizmatchi zudlik bilan tartib o'rnatish choralarini ko'rishi va bu haqida bevosita komandirga (boshlig'iga) bildiruv berishi lozim. Ular harbiy harakatlarni olib borish, yaradorlar, bemorlar, kema halokatiga uchragan shaxslar va jangovar harakatlar hududidagi tinch aholi, shuningdek harbiy asirlar bilan muomalada bo'lishning xalqaro qoidalarini bilishlari va ularga og'ishmay rioya etishlari shart.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, harbiy xizmatchilar odatda harbiy yoki boshqa lavozimlarda harbiy xizmatni o'taydilar. Lavozim harbiy xizmatchining mudofaa va xavfsizlik sohasidagi davlat vazifalari va funksiyalarini amalga oshirish bo'yicha bajaradigan xizmat vazifalarining xususiyati, majburiyatlari va huquqlari, rag'batlantirish va javobgarligi, shuningdek uning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilaydi. Harbiy xizmatga taalluqli boshqa barcha masalalar asosiy tushuncha bo'lgan harbiy lavozim bilan bog'liq. Turli normativ-huquqiy hujjatlarda (lavozim yo'riqnomalari, boshqaruv organlari to'g'risidagi nizomlar, harbiy nizomlari, turli toifadagi harbiy xizmatchilarning harbiy xizmatni o'tash to'g'risidagi nizomlar va

boshqalar) yuridik jihatdan mustahkamlangan majburiyatlar majmuasini tashkil etadi va ularga mos huquqlar va javobgarlik chegaralari harbiy xizmat munosabatlarining mazmunini belgilaydi.

Bu munosabatlar ikki yoʻnalishda shakllanadi: birinchidan, harbiy xizmatchi va davlat oʻrtasida lavozimga tayinlanish munosabati bilan; ikkinchidan, harbiy xizmatchi va davlat xizmat munosabatlarining boshqa ishtirokchilari oʻrtasida oʻz xizmat faoliyatini amalga oshirish jarayonida vujudga keladi. Yaʼni harbiy lavozim qonunga muvofiq harbiy xizmat nazarda tutilgan davlat harbiy tashkilotida yoki ijro etuvchi hokimiyat organida belgilangan tartibda taʼsis etilgan birlamchi tarkibiy birlik boʻlib, uni egallab turgan shaxsning (harbiy xizmatchi) mansab vakolatlari mazmuni va hajmini aks ettiradi.

Har bir harbiy xizmatchi egallab turgan lavozimiga muvofiq unga yuklatilgan funksiyalar va vazifalarni amalga bajarish hajmi va chegaralarini belgilovchi lavozim majburiyatlariga ega.

Harbiy xizmatchilar jangovar navbatchilikda (jangovar xizmatda), sutkalik va garnizon naryadlarida boʻlganlarida, shuningdek, tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun jalb qilinganlarida va boshqa favqulodda vaziyatlarda qonunlar, boshqa meʼyoriy-huquqiy hujjatlari va harbiy nizomlar bilan belgilangan va odatda vaqtinchalik xususiyatga ega boʻlgan maxsus majburiyatlarni bajaradilar. Masalan, qorovul tarkibiga tayinlangan va oʻz vazifalarini bajarishga kirishgan harbiy xizmatchilar qorovulning vazifasiga muvofiq qatʼiy belgilangan vaqt davomida qorovullik xizmatini olib boradi. Eʼtiborli jihati shundaki, maxsus majburiyatlarni bajarish davrida harbiy xizmatchi oʻzining doimiy lavozim majburiyatlaridan ozod etiladi. Maxsus majburiyatlarni bajarish uchun harbiy xizmatchilarga qonun hujjatlari va harbiy nizomlar bilan belgilanadigan maxsus huquqlar beriladi. Masalan davlat qoʻriqlov organlarida xizmatni oʻtayotgan harbiy xizmatchilarga qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibda jismoniy kuch ishlatish, maxsus vositalar va qurol qoʻllash huquqi berilgan. Shu oʻrinda harbiy xizmatchilarning ikkinchi darajali yoki qoʻshimcha daromad keltiruvchi faoliyat bilan shugʻullanish huquqini cheklash kerakmi yoki yoʻqmi degan haqli savol tugʻiladi. Muammo shundaki, harbiy xizmat manfaatlarini buzmaslik uchun bunday faoliyat qanday shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Koʻrsatib oʻtilgan cheklovlar turli davlatlarda iqtisodiy shart-sharoitlarga va harbiy xizmat oʻtashning alohida shart-sharoitlariga qarab oʻzgarib turadi. Bu borada A.M.Dobrovolskiy toʻgʻri taʼkidlaganidek, "...cheklovlar nihoyatda ehtiyotkorlik bilan oʻrnatilishi lozim, ular harbiylarning shaxsiy manfaatlariga jiddiy zarar yetkazmasligi va harbiy xizmatni oʻtayotgan shaxslar uchun yangi qiyinchiliklar keltirib chiqarmasligi kerak"[18]

**Germaniyada** "Harbiy xizmatchilarning huquqiy holati toʻgʻrisida"gi qonunda harbiy xizmatchi qoʻshimcha haq toʻlanadigan ishga ega boʻlishni, hunarmandchilik yoki erkin kasb bilan shugʻullanishni, shirkat (jamiyat) boshqaruvi, qoʻmitasi yoki boshqa boshqaruv organi aʼzosi yoki vasiy (vositachi) rolini bajarishi mumkinligi koʻrsatilgan boʻlib, buning uchun tegishli harbiy boshqaruv organlarining ruxsatini olishga murojaat qilishi shartligi toʻgʻridan-toʻgʻri koʻrsatilgan.

Agar bu faoliyat harbiy xizmatchining xizmat oʻtashiga xalal bermasa, ruxsat beriladi.

**Fransiyada** qurolli kuchlari harbiy xizmatchilari xizmatdan boʻsh vaqtlarida, agar bu faoliyat harbiy xizmat manfaatlariga xalal bermasa, qoʻshimcha ishlarda ishlashlari mumkin.

Harbiy xizmatchilar tijorat va notijorat tuzilmalarining rahbar organlariga kirganligi toʻgʻrisida oʻzlarining qoʻmondonlikka axborot berishlari shart.

Harbiy xizmatchilar majburiyatlari o'zining yuridik tabiati jihatidan umumfuqaroviy majburiyatlardan farq qiluvchi, davlatning mudofaa va xavfsizlik funksiyalarini ta'minlashga qaratilgan maxsus-huquqiy institutdir. Ular konstitutsiyaviy burch, harbiy intizom va buyruqqa bo'ysunish tamoyillariga asoslanib, imperativ xarakterga ega hamda alohida yuridik javobgarlik bilan ta'minlanadi.

Shu bilan birga, majburiyatlar tizimi harbiy xizmatchilar huquqlari bilan mutanosiblikda, qonuniylik, zarurat va mutanosiblik mezonlari asosida belgilanishi lozim. Mazkur institutni takomillashtirish harbiy xizmatchilar maqomini mustahkamlash, huquq va majburiyatlar muvozanatini ta'minlash hamda harbiy xizmat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси // Ўзбекистон Республикаси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси <https://lex.uz/uz/>
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати // <https://izoh.uz/uz/word/burch>
3. Полунин, С.В. О структуре правового статуса военнослужащих / С. В. Полунин, А. С. Васильев // Право в Вооруженных Силах - Военно-правовое обозрение. – 2017. – № 3(236). – С. 113-117.
4. Бахрах Д.Н. Государственная служба в Российской Федерации: Учебное пособие. - Екатеринбург, 1995
5. <http://www.voенноеправо.ru/files/Popov.doc>
6. Корякин В.М., Кудашкин А.В., Фатеев К.В. «Военно-административное право (военная администрация) Учебник», За права военнослужащих, М., 2008, с. 280
7. Маслов Н.А.//Обязанности и ответственность военнослужащих срочной службы. // <https://cyberleninka.ru/article/>
8. Матузова Н.И. Теория государства и права:/ Курс лекций / Под ред. Н.И.Матузова и А.В.Малько. – М., 1997. – С.231.
9. Игнатенко А.С.//Особенности конституционных прав, свобод и обязанностей военнослужащих внутренних войск Министерства внутренних дел Республики Беларусь. – 2018. <https://elibrary.ru/>
10. Титанова, Э. А. Общая характеристика административно-правового статуса военнослужащих // Высокие технологии и инновации в науке:Сборник избранных статей Международной научной конференции, Спб. 2019. «НАЦРАЗВИТИЕ», С. 316-319. <https://elibrary.ru/>
11. Титов, А.В. Юридическая ответственность за неисполнение общих обязанностей военнослужащих Вооруженных сил Российской Федерации // Военное право. – 2008. – № 4. – С. 24-31. <https://www.elibrary.ru/>
12. Азархин, А. В. Проблемы определения сущности и содержания правового статуса военнослужащих. //Право и государство: теория и практика. – 2009. – № 5(53). – С. 13-17. Ушамировский А.Э. Механизм реализации субъективных прав военнослужащих в России (Вопросы теории и практики): Дисс. ... на соиск. канд. юрид. наук. Волгоград, 2006. С. 31.

13. Спицын А.И. Конституционно-правовые гарантии защиты прав и свобод военнослужащих-преподавателей военно-учебных заведений Российской Федерации: Дисс. ... на соиск. канд. юрид. наук. СПб., 2005. С. 54.
14. 1945-йил 8-августда Лондонда имзоланган Халқаро ҳарбий трибунал Низомининг 8-моддаси БМТ томонидан "Treaty Series"да нашр этилган. Т. 82. - Нюрнберг. Б.278-310. <https://nurnberg.rusarchives.ru/>
15. Женева конвенцияларига Қўшимча протоколнинг 77-моддаси.
16. Обер М. Вопрос о приказах старших войсковых начальников и ответственности командиров. — Международный Комитет Красного Креста, 1997. — С.15.
17. Ҳарбий асирлар билан муомала қилиш тўғрисида 1949-йил 12-августдаги Женева конвенцияси <https://www.un.org/ru/>
18. Добровольский А.М. Особенности положения военнослужащих в области публичного права. — СПб, 1913. — С.35.